

**2025-2026-O'QUV YILIDA
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARNING
11-SINF
O'QUVCHILARI UCHUN
INFORMATIKA VA
AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI
FANIDAN YAKUNIY ATTESTATSIYASINI
O'TKAZISH BO'YICHA
METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**

**2025-2026-O‘QUV YILIDA IXTISOSLASHGAN MAKTABLARINING
11- SINF O‘QUVCHILARI UCHUN TANLOV FANLAR BLOKIDAGI
INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGOYALARI FANIDAN
YAKUNIY NAZORATIDA FOYDALANILADIGAN TEST
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Ushbu spetsifikatsiyasi ixtisoslashgan maktablarining 11-sinf o‘quvchilarining informatika va axborot texnologoyalari fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini baholashda foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezoni va o‘tkazilish tartibiga qo‘yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – 11-sinf o‘quvchilarining informatika va axborot texnologoyalari fanidan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini amaldagi dasturlarda belgilangan o‘quv maqsadlari asosida kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida 11-sinflar uchun yakuniy davlat attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asoslangan (valid) bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashda validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2008-yil 4-martdagi 56-sonli burug‘i bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizom

2. Informatika va axborot texnologoyalari fanlaridan 5-11-sinflar uchun amaldagi o‘quv dasturi

III. Baholash qamrovi va ajratilgan vaqt

O‘quvchilari uchun informatika va axborot texnologoyalari fani bilish darajasini aniqlash bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovida jami 3 ta amaliy topshiriq taqdim etiladi. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari uchun **180 daqiqa** vaqt berilgan. Amaliy topshiriqning mazmun sohasi, baholanadigan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvallarda aks etgan:

Mazmun soha	Bilim, ko'nikma va kompetensiyalar	Amaliy topshiriq soni
Elektron jadvallar va ma'lumotlar bazasidan maqsadli foydalanish		
Elektron jadvallardan maqsadli foydalanish	Elektron jadvalda ma'lumotlarni kiritish va tahrirlashni bilish; Formulalar va funksiyalardan foydalanib hisob-kitoblarni amalga oshirish; Diagramma va grafiklar yordamida ma'lumotlarni tahlil qilish; Ma'lumotlarni saralash (sort) va filtrlashni qo'llay olish;	1
Ma'lumotlar bazasidan maqsadli foydalanish	Ma'lumotlar bazasi va uning asosiy tushunchalarini izohlay olish; Jadval, maydon va yozuvlar bilan ishlay olish; So'rov (query) orqali kerakli ma'lumotlarni ajrata olish; Ma'lumotlar bazasida axborotni saqlash va yangilashni amalga oshirish;	
Grafika, Animatsiya		
Grafika yaratish	Rastrli va vektorli grafikaning standart funksiyalarini amalda qo'llay olish; Vektorli va rastrli tasvirlarni yarata oladi; Vektorli va rastrli tasvirlarga matn qo'sha olish; Vektorli va rastrli tasvirlarni tahrirlash uskunalaridan foydalana olish;	1
Animatsiya	Animatsiya yaratishda kadrlar va keyfreymdan foydalana olish; Vaqt birliklari va qatlamlardan foydalana olish; Matn va obyektlar qo'shish va tahrirlay olish;	
Veb uchun dasturlash		
JavaScript tilida dasturlash	Veb sahifalarga interaktivlik qo'shish uchun JavaScriptdan foydalana olish; Dasturlash operator va funksiyalarni bilish va qo'llash;	1
Jami		3

IV. Topshiriq turlari bo'yicha taqsimoti

TOPSHIRIQ TURI	IZOHI	TOPSHIRIQ SONI
Amaliy ish	Elektron jadvallar, ma'lumotlar bazasida jadvallar bilan ishlash	1 ta
	Rastr va vector grafikasida ishlash; animatsiya yaratish	1 ta
	Veb sahifa uchun JavaScript yordamida interaktivlik qo'shish	1 ta

V. Baholash mezoni va ballni bahoga aylantirish tartibi

O'quvchilarning yozma ishlari yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida maksimum 100 ball bilan baholanadi. Topshiriqlar uchun belgilangan ballar ularning murakkablik darajasini, bajarishda talab etiladigan bilim, ko'nikma va mantiqiy fikrlash hajmini hisobga olgan holda belgilangan. Topshiriqlar mazmuni va qiyinlik darajasi asosida turli xil ball bilan baholanadi. Har bir topshiriqning baholash mezoni baholash formatida berilgan. Quyida ballni bahoga konvertatsiya qilish jadvali keltirilgan:

Ballni bahoga aylantirish jadvali

Ball (%)	Baho	Izohi
0 – 29	“2”	“qoniqarsiz”
30 – 65	“3”	“qoniqarli”
66 – 85	“4”	“yaxshi”
86 – 100	“5”	“a'lo”

VI. Baholash formati

O'quvchining bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash bosqichi, baholanadigan mazmun soha, topshiriq turi, kognitiv jarayon va baholash mezonlari quyidagi jadvalda berilgan:

Topshiriq tartib raqami	Mazmun sohasi	Topshiriq turi	Kognitiv darajasi	Baholash mezonlari
1-topshiriq				
1.	Ma'lumotlar kiritish va tahrirlash	amaliy	B	10 ball
	Ma'lumotlarni qayta ishlash (formula, funksiya, obyekt, diagramma, sql so'rov)	amaliy	Q/M	20 ball
2- topshiriq				
2.	Ma'lumotlar kiritish va tahrirlash	amaliy	B	10 ball
	Topshiriqda keltirilgan shartlar bo'yicha animatsiya hosil qilish	amaliy	Q/M	25 ball
3- topshiriq				
3.	Topshiriqda keltirilgan shartlar bo'yicha JavaScript yordamida veb sahifaga interaktivlik qo'shish	amaliy	Q/M	35 ball
Jami		100 ball		

VII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki sun'iy intellektdan foydalanish qat'iy man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, dalolatnoma tuzib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VIII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. Informatika va axborot texnologiyalari. 5-sinf. V.Ellis, S.Lawrey, D.Dickinson. "Cambridge University Press". 2023
2. Informatika va axborot texnologiyalari. 6-sinf. V.Ellis, S.Lawrey, D.Dickinson. "Cambridge University Press". 2023
3. Informatika va axborot texnologiyalari. 7-sinf. V.Ellis, S.Lawrey, D.Dickinson. "Cambridge University Press". 2023
4. Informatika va axborot texnologiyalari. 8-sinf. V.Ellis, S.Lawrey, D.Dickinson. "Cambridge University Press". 2023
5. Informatika va axborot texnologiyalari. 9-sinf. V.Wright, D.Taylor. "Cambridge University Press". 2023
6. Informatika va axborot texnologiyalari. 10-11-sinf. P.Long, S.Lawrey, V.Ellis. "Cambridge University Press". 2023

2025-2026 o'quv yilida ixtisoslashtirilgan maktablarning 11-sinf o'quvchilarining "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan yakuniy davlat imtixonini topshiriqlari bazasi

1-topshiriq bazasi

(Elektron jadvallar va ma'lumotlar bazasi bilan ishlash)

1. Vazifa: 15 ta o'quvchi, 5 ta fan bo'yicha o'rtacha baholarni hisoblovchi jadval yaratilgan.

Talablar: Jadval strukturasi: o'quvchi, 5 ta fan, har bir fan uchun baho; har bir o'quvchining o'rtacha bahosi; har bir fan bo'yicha sinf o'rtacha bahosi; eng yuqori va eng past baholar;

Shartli formatlash: 4.5-5.0: Yashil rang; 3.5-4.4: Sariq rang; 3.0-3.4: Qizil rang; Fanlar bo'yicha o'rtacha baholarni ko'rsatuvchi ustunli diagramma

2. Vazifa: 30 kunlik savdo hisobotini tahlil qilish.

Talablar: Asosiy jadval: sana, mahsulot nomi, narxi, sotilgan miqdori, umumiy summa Hisoblashlar: kunlik daromad; eng ko'p sotilgan mahsulot; o'rtacha kunlik daromad; Diagrammalar: mahsulotlar bo'yicha foiz; daromad dinamikasi

3. Vazifa: 50 ta kitob katalogini boshqaruvchi jadval.

Talablar: jadval maydonlari: ID, Kitob nomi, Muallif, Janr, Narx, Soni, Umumiy qiymat

Hisoblashlar: Kitob ID bo'yicha ma'lumot qidirish; narx bo'yicha saralash; kitoblar soni o'zgartirishda umumiy qiymatni hisoblash

4. Vazifa: 10 ta sportchi, 5 ta sport turi bo'yicha reyting jadvali.

Talablar: Asosiy ma'lumotlar: sportchi, 5 ta sport turi, musobaqa natijalari

Hisoblashlar: Umumiy reyting o'rni; har bir sportda 1, 2, 3-o'rinlar; natijalarni ranglar bilan ajratish; diagrammalar

5. Vazifa: Talabalar va ularning yotoqxona xonalari ma'lumotlar bazasi.

Talablar: jadvallar (3 ta): talabalar (ID, Ism, Familiya, Guruh, Telefon); xonalar (ID, Xona raqami, Qavat, Joylar soni, Bo'sh joylar); joylashtirish (ID, Talaba ID, Xona ID, Kirish sanasi) Bog'lash (Relationships): Bitta talaba faqat bitta xonada, bitta xonada bir necha talaba

So'rovlar (Queries): 2024 yilda kelgan talabalar; Forma: Yangi talaba qo'shish formasi

6. Vazifa: Kitoblar, a'zolar va ijara ma'lumotlarini boshqarish.

Talablar: jadvallar (4 ta): Kitoblar (ID, Nomi, Muallif, ISBN, Soni); A'zolar (ID, Ism, Familiya, A'zo raqami); Ijara (ID, Kitob ID, A'zo ID, Olingan sana, Qaytarish sanasi); Javobgarlik (ID, Ijara ID, Kechiktirganlik uchun jarima)

So'rovlar (Queries): Muddati o'tgan kitoblar; Hisobot: Oylik ijara hisoboti

7. Vazifa: Sport klubi a'zolari va ularning to'lovlari bazasi.

Talablar: jadvallar: A'zolar (ID, Ism, Telefon, Tug'ilgan sana, qo'shilgan sana); Sport turlari (ID, Sport nomi, Oylik to'lov); A'zolik (ID, A'zo ID, Sport ID, To'lov holati, Oy); To'lovlar (ID, A'zo ID, Miqdor, Sana); So'rovlar: Familiya bo'yicha; Hisobotlar: Sport turlari bo'yicha statistika

8. Vazifa: Maktab jihozlari va ularning holati ma'lumotlar bazasi.

Talablar: jadvallar: Inventar (ID, Nomi, Turi, Sotib olingan sana, Narxi, Holati); Xonalar (ID, Xona raqami, Qavat, Mas'ul shaxs); Joylashuv (ID, Inventar ID, Xona ID, Ko'chirilgan sana); Ta'mirlash (ID, Inventar ID, Ta'mirlash sanasi, Xarajat); So'rovlar: 5 yildan eski inventar ro'yxati; Hisobot: qavatlar bo'yicha

2-topshiriq bazasi (Grafika, Animatsiya)

1. Maktab uchun logotip tayyorlash
2. "Sport" mavzusida ijtimoiy tarmoq posteri tayyorlash.
3. "Mening sevimli kitobim" mavzusida alternativ muqova dizayni tayyorlash.
4. "Sevimli kino" afishasi dizaynini tayyorlash
5. Quyoshning chiqish va botish animatsiyasini tayyorlash
6. Maktab hayoti animatsiyasini tayyorlash
7. "Tabiatni asrang" nomli animatsiyani tayyorlash
8. "Ona muqaddas" nomli animatsiya tayyorlash

3-topshiriq bazasi (Veb dasturlash)

JavaScript da dastur tuzish

1. 4 ta asosiy arifmetik amalni bajaruvchi kalkulyator yaratish.
2. Selsiy, Farengeyt va Kelvin o'rtasida harorat konvertatsiyasini amalga oshiruvchi dastur tuzish.
3. O'zbek so'midan AQSH dollari, Yevro va Rubllarga konvertatsiyasini amalga oshiruvchi dastur tuzish.
4. Geometrik shakllarning yuzasi va hajmini hisoblashchi dastur tuzish.
5. Kiritilgan sonning juft yoki toq, necha xonali ekanligini aniqlovchi dastur tuzish.
6. Foydalanuvchi n kiritganda, 1 dan n gacha bo'lgan juft sonlar yig'indisini hisoblash dasturini yaratish.
7. Foydalanuvchi kiritgan yosh bo'yicha nechanchi yilda tug'ilganini va aksinchani topish dasturini yaratish
8. Kiritilgan n sonini raqamlari yig'indisini xisoblovchi dastur tuzish